

VOLUME II | ISSUE 3 | MARCH-APRIL

2024

Journal of Pedagogical and Psychological Studies

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ И ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
ПЕДАГОГИК ВА ПСИХОЛОГИК ТАДҚИҚОТЛАР

ISSN: 2181-4066



Available online at www.imfaktor.com

ISSN: 2181-4066
DOI Journal 10.56017/2181-4066

ПЕДАГОГИК ВА ПСИХОЛОГИК ТАДҚИҚОТЛАР

II-ЖИЛД, 3-4 СОН

ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ И ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ-II, НОМЕР-3-4

PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL STUDIES

VOLUME-II, ISSUE-3-4

ТОШКЕНТ - 2024

ПЕДАГОГИК ВА ПСИХОЛОГИК ТАДҚИҚОТЛАР

ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ И ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ | PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL STUDIES

№ 3-4 (2024) DOI <http://dx.doi.org/10.56017/2181-4066-2024-3-4>

Бош муҳаррир:

Нишонова З.

– психология фанлари доктори, профессор

Масъул муҳаррир:

Давлатов Ойбек.

– педагогика ф.б.ф.д. (PhD)

Таҳририят аъзолари:

1. Юсупова Хабиба Ирискуловна – педагогика ф.б.ф.д. (PhD)
2. Олимов Лазиз Ярашович – психология ф.б.ф.д. (PhD), доцент
3. Элов Зиёдулло Сатторович – психология фанлари доктори, доцент
4. Ганжиев Феруз Фурқатович – психология ф.б.ф.д. (PhD)
5. Мусаева Мухаббат Эшбаевна – педагогика ф.б.ф.д. (PhD), доцент
6. Умаров Баҳром Норбоевич – педагогика ф.б.ф.д. (PhD)
7. Орипова Раънохон Иброхимовна – педагогика фанлари номзоди, доцент
8. Ўринова Феруза Ўлжаевна – педагогика фанлари номзоди, доцент
9. Ниёзова Лутфия Худайбергановна – дефектолог - эксперт
10. Салиева Дилором Абдуллаевна – психология фанлари номзоди
11. Останов Шухрат Шарифович – психология ф.б.ф.д. (PhD)
12. Рустамов Шавкат Шухратович – психология ф.б.ф.д. (PhD)
13. Халлокова Максудахон Эргашевна – педагогика ф.б.ф.д. (PhD)
14. Исмаилова Раъно Нураевна – психология ф.б.ф.д. (PhD), доцент
15. Саримова Дилдора Соаталиевна – педагогика ф.б.ф.д. (PhD), доцент
16. Улуғова Шахлола Муслиддиновна – психология фанлари номзоди, доцент
17. Махмудова Зулфия Мехмоновна – психология ф.б.ф.д. (PhD), доцент
18. Худайберганов Шухрат Шавкат ўғли – педагогика ф.б.ф.д. (PhD)
19. Исматова Дилафруз Тўймуратовна – психология ф.б.ф.д. (PhD)
20. Улуғова Шахлола Муслиддиновна – психология фанлари номзоди, доцент
21. Махмудова Зулфия Мехмоновна – психология ф.б.ф.д., (PhD)
22. Ўринова Озодахон Ўлжаевна – педагогика ф.б.ф.д., (PhD)
23. Рўзиёв Умар Музафарович – психология ф.б.ф.д., (PhD)
24. Останов Жасур Шопиржонович – психология ф.б.ф.д., (PhD)
25. Лола Камоловна Илиева (Бахриддинова) – педагогика фанлари номзоди, доцент
26. Муродова Дурдонахон Райимжон қизи – педагогика ф.б.ф.д. (PhD)

“Педагогик ва психологик тадқиқотлар” журнали 6 та халқаро маълумотлар базаларида индексланган бўлиб, жорий йил учун UIF 2023 = 8.2 “импакт-фактор” кўрсаткичига эга. Ўзбекистон Республикаси Олий таълим, фан ва инновациялар вазирлиги ҳузуридаги Олий аттестация комиссиясининг 2023 йил 24 июлдаги 01-02/1199-сонли хатига мувофиқ ушбу журналда чоп этилган мақолалар хорижий мақолалар сифатида тан олинади.

Таҳририят манзили: Тошкент шаҳар, Учтепа тумани, “Ватан” МФЙ, Чилонзор
24-мавзеси, 2/27-уй. Почта индекси 100152. Веб-сайт: www.imfaktor.uz/com

Телефон номер: +99894-410 11 55, **E-mail:** tahririyat@imfaktor.uz

© “ИМФАКТОР Pages” илмий нашриёти, 2024 йил.

© Мўаллифлар жамоаси, 2024 йил.

ПЕДАГОГИК ВА ПСИХОЛОГИК ТАДҚИҚОТЛАР

ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ И ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ | PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL STUDIES

XALLOKOVA Maksuda Ergashevna

Farg‘ona davlat universiteti

katta o‘qituvchisi

Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10968209>

МАКТАБГАЧА YOSHDAGI BOLALARNI SHAXSGA YO‘NALTIRILGAN YONDASHUV ASOSIDA RIVOJLANTIRISH

ANNOTATSIYA

Maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarni shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv asosida tarbiyalashning muhim jihatlari, shaxsga yo‘naltirilgan ta‘lim mazmuni va o‘ziga xos xususiyatlari haqida mulohazalar yuritilgan. Shuningdek, shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv asosida bola shaxsini shakllantirishda insoniylik g‘oyalari, tamoyillari va “Men” konsepsiyasinig yuzaga kelishi haqida ilmiy qarashlar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: uzluksiz ta‘lim, shaxs, maktabgacha ta‘lim tashkiloti, talablar, tamoyillar, muhit, “Men” konsepsiyasi, M.Montessori metodikasi, rivojlanish.

РАЗВИТИЕ ДОШКОЛЬНИКОВ НА ОСНОВЕ ЛИЧНОСТНО-ОРИЕНТИРОВАННОГО ПОДХОДА

АННОТАЦИЯ

В статье рассмотрены важные аспекты воспитания дошкольников на основе личностно-ориентированного подхода, содержание и особенности личностно-ориентированного обучения. Также на основе личностно-ориентированного подхода сформулированы научные взгляды на возникновение представлений, принципов человечности и понятия “я” в формировании личности ребенка.

Ключевые слова: непрерывное образование, личность, дошкольная образовательная организация, требования, принципы, среда, понятие “Я”, М.Методика Монтеessori, разработка.

DEVELOPMENT OF PRESCHOOL CHILDREN ON THE BASIS OF AN INDIVIDUAL-ORIENTED APPROACH

ANNOTATION

The article deals with important aspects of educating preschool children on the basis of an individual-oriented approach, the content and specifics of personality-oriented education. Also, in the formation of a child's personality on the basis of a personality-oriented approach, scientific views on the ideas, principles of humanity and the emergence of the concept “I” are described.

Keywords: continuing education, personality, preschool organization, requirements, principles, environment, concept of “I”, M.Montessori methodology, development.

Mamlakatimizda aynan maktabgacha ta'lim uzluksiz ta'lim tizimining ajralmas bo'lagiga, ta'bir joiz bo'lsa, uning debochasiga aylangan [1, B.18].

Kichik yoshdagi bolalar ta'lim-tarbiyasini yuqori sifatda tashkil etish davlat siyosati darajasida ko'rib chiqilmoqda. Ammo mazkur yoshdagi bolalar uchun ta'lim jarayoni birmuncha murakkab bo'lib, uni tashkil etish pedagoglardan chuqur kasbiy bilim va mahoratni talab etadi. Shu bois, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida shaxsga yo'naltirilgan ta'lim pedagogik muammo sifatida o'rganishni taqozo etadi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan mazkur sohadagi islohotlar izchil davom ettirilib, maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarmog'ini hozirgi zamon talablari va standartlari asosida rivojlantirish, ularni rekonstruksiya va modernizatsiya qilishga qaratilayotgan e'tibor zamirida ham kelajagimiz egalarining hech kimdan kam bo'lmay ulg'ayishlari hamda buyuk ajdodlarga munosib voris bo'lib voyaga yetishlarini ta'minlashdek ezgu maqsad mujassam.

Zamonaviy sharoitda ta'lim jarayonining barcha imkoniyatlariga ko'ra shaxsni rivojlantirish, ijtimoiylashtirish va unda mustaqil, tanqidiy, ijodiy fikrlash qobiliyatlarini tarbiyalashga yo'naltirilish pedagogik muammo deb hisoblash talab qilinmoqda. O'zida ana shu imkoniyatlarni namoyon eta olgan ta'lim *shaxsga yo'naltirilgan ta'lim* deb nomlanadi.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim – shaxsning fikrlash va harakat strategiyasini inobatga olgan holda uning shaxsi, o'ziga xos xususiyatlari, qobiliyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lim.

Bu ta'lim o'qitish muhitining shaxs imkoniyatlariga moslashtirilishini nazarda tutadi. Unga ko'ra ta'lim muhiti, pedagogik shart-sharoitlar, ta'lim hamda tarbiya jarayonini to'laligicha shaxsning shaxsiy imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish, qobiliyatini rivojlantirish, shaxs sifatida kamolotga yetishini ta'minlash, tafakkuri va dunyoqarashini boyitishni nazarda tutadi [2, B.60].

Shaxsga yo'naltirilgan ta'limning o'ziga xos jihati ta'lim oluvchi shaxsini tan olish, uni har tomonlama rivojlantirish uchun qulay, zarur muhitni yaratishdan iborat. Bu turdagi ta'lim shaxsda mustaqillik, tashabbuskorlik, javobgarlik kabi sifatlar, shuningdek, mustaqil, ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini tarbiyalashga xizmat qiladi. Bu turdagi ta'limni tashkil etishda pedagoglardan har bir shaxsga imkon qadar individual yondashishni, uning shaxsini hurmat qilishni, unga ishonch bildirish taqozo etiladi.

Qolaversa, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim o'qitish jarayonining ishtirokchilari o'zaro hamkorlikda bilim olish, shaxs sifatida kamol toptirish uchun qulay pedagogik sharoitni yaratish zaruriyatini ifodalaydi. Pedagog ta'lim jarayonida shaxsga yo'naltirilgan ta'lim turlaridan foydalanar ekan, bir qator shartlarga qat'iy rioya etishi kerak. Ushbu talablar quyidagilaran iborat:

- maktabgacha yoshdagi bolalarning alohida, o'ziga xos shaxs sifatida ko'ra olishi;
- maktabgacha yoshdagi bolalarni hurmat qilishi;
- maktabgacha yoshdagi bolalarning ruhiy holatini to'g'ri baholay olishi;
- maktabgacha yoshdagi bolalarning xohish-istak, qiziqishlarini inobatga olishi;
- maktabgacha yoshdagi bolalarga ijobiy munosabatda bo'lishi;
- maktabgacha yoshdagi bolalarning kuchi, imkoniyati va intilishlariga ishonch bildirishi;
- har bir shaxs uchun qulay ta'lim muhitini yaratishi;
- maktabgacha yoshdagi bolalarning mustaqil faoliyati samaradorligini aniqlash, yutuqlarning omillari va yo'l qo'yilgan xatolarning oqibatlarini tahlil qilish o'rgatish;
- maktabgacha yoshdagi bolalarning ta'lim jarayonida har biri uchun "muvaffaqiyat muhiti"ni yarata olish;
- maktabgacha yoshdagi bolalarning qobiliyatini o'stirish, shaxs sifatida rivojlanishiga yordam berish;
- pedagog sifatida har bir bolaning hurmati va ishonchini qozona olishi zarur.[3.56]

A.M.Vinogradova, N.V.Miklyayeva va N.F.Mulkol o'z ilmiy ishlarida maktabgacha yoshdagi bolalarni ijtimoiy – madaniy tarbiyalash, his-tuyg'ularni rivojlantirishning asosiy manbai hisoblangan turli xil aqliy mehnat faoliyati bo'lgan rasm chizish, plastilin va applikasiya bilan shug'ullanish bolalarda nafaqat vizual taassurotlar, balki atrofidagi dunyoni his etishlari, kuzatilayotgan hodisalarni aks ettira olish imkonini berishini isbotlaganlar;

N.Melnikova maktabgacha yoshdagi bolalarning shaxsiyatini baholashning bir necha yoʻnalishlari ustida ilmiy izlanishlar olib borgan. Uning takidlashicha, bolada oʻz shaxsiyatini baholash aniq va tanish ijtimoiy munosabatlarda, ijobiy va salbiy qadriyatlarni tavsiflovchi yaxshilik va yovuzlik, haqiqat va yolgʻon, mehnatsevarlik va dangasalik, saxovat va ochkoʻzlik tushunchalari bilan tanishish jarayonida yuzaga keladi [3, B.79].

Yuqorida taʼkidlab oʻtilganidek, ijtimoiy-madaniy qadriyatlarni bolalarda rivojlantirishning eng qulay va samarali vaqti maktabgacha yoshdagi davr hisoblanadi. Bu yoshda shakllantirilishi lozim boʻlgan ijtimoiy-madaniy qadriyatlarning eng asosiylari sifatida oilaviy qadriyatlar, doʻstlik, Vatanga muhabbat, xalqning tarixiy qadriyatlarini hurmat qilish kiradi.

S.V.Konchenko maktabgacha yoshdagi bolalarda rol oʻynash va hikoyaviy oʻyinlar taʼsirida kommunikativ koʻnikmalarini rivojlantirish mexanizmlarni oʻrgangan boʻlsa, maktabgacha pedagogika namoyondalari M.I.Lisinoy, T.A.Repinoy va A.G.Roʻzskoilar maktabgacha yoshdagi bolalar bilan tengdoshlari, shuningdek, kattalar bilan muloqotni rivojlantirish kommunikativ faoliyat jarayoni sifatida namoyon boʻladi, deb taʼkidlagan [4, B.43].

Bola shaxsiga yoʻnaltirilgan taʼlim mazmuni va metodlari bola shaxsining shakllanishi, uni mustaqil shaxs sifatida tan olinishi jarayonlari kechadigan muhitda tashkil etiladi. Bu jarayon shaxsga yoʻnaltirilgan hamda unga umuminsoniylik xos boʻlsa, ushbu pedagogik faoliyat insoniy-shaxslik darajasiga oʻtadi.

Insoniylikka yoʻnaltirilgan taʼlim gʻoyalari quyidagilarda aks etadi:

- zamonaviy taʼlim umuminsoniy qadriyatlardan kelib chiqqan hamda muayyan jamiyat maʼnaviyatiga asoslanadi;

- taʼlim maqsadi oʻzligiga ega, umuminsoniy qadriyatlarga ega shaxsni shakllantirish va rivojlantirishga qaratiladi;

- shaxs kamoloti toʻlaqonli - ong va tuygʻular, ruh va tan birligi tarzida amalga oshiriladi;

- tashkilotda guruh ishi alohida shaxsiy ish bilan birgalikda olib boriladi va bunda bola faoliyatining oʻziga xos uslubi shakllanishiga alohida eʼtibor qaratiladi;

- taʼlim shaxs faoliyati turi sifatida ichki asosga ega, tarbiyachi va tarbiyalanuvchining teng munosabatlari, hamkorlikda qaror qabul qilishiga tayanadi;

- taʼlim rasmiy boshqaruvga emas, balki mehr, eʼtibor, hamkorlikka tayanadi.

Bolaning dastlabki olti yoshi uning keyingi rivojlanishi uchun juda muhim davrdir. Bolalarning 8 oydan 12 yoshgacha boʻlgan davri uzluksiz taʼlimning muqobil tizimi hisoblanib, uning xususiyatlari quyidagilardan iborat:

1. Shaxsiy falsafaviy asoslarga egaligi.

2. Falsafaviy-psixologik tamoyillarga rioya qiluvchi metodikaning mavjudligi.

Bu taʼlim quyidagi falsafiy, psixologik va pedagogik tamoyillarga asoslangan [5.33].

Falsafaviy tamoyil - bola hamma jihatlar boʻyicha kattalardan ajralib turadi, aqliy faoliyat shakli alohida rivojlangan “egiluvchan tafakkurga” ega. M.Montessorining xulosasiga koʻra, bolaning fikrlash ongi kattalarning fikrlash ongidan tubdan ajralib turadi. Ushbu shaklni u “egiluvchan tafakkur”- deb nomlaydi. Bola tevarak-atrof tasvirlarini xis etuvchi organlari orqali beixtiyor qabul qiladi. Bolaning tafakkuri yangiliklarni suvdek singdirib oladi: foydali-foydasizni, yaxshi-yomonni va xokazolarni anglay boshlaydi. Shu tarzda alohida eʼtibor predmetli va ijtimoiy muhitni yaratishga qaratilgan. Kattalar bolalar uchun shunday muhit yaratishi kerakki, bola rivojlanishi uchun hamma kerakli va foydali jihatlarni topish imkoniyatlariga ega boʻlsin [6, B.40].

Rivojlanish jarayonida bolaning ongi asta-sekin kattalarniki kabi fikrlash ongiga aylanadi. Bola beixtiyor singdirish qobiliyatidan ongli singdirish jarayoniga oʻtadi. Aynan shu maqsadda maktabgacha taʼlim tashkilotlarida rivojlantiruvchi muhit yaratiladi.

Psixologik tamoyil har bir insonga alohida, yakkama-yakka yondashishdir. M.Montessori bolaning rivojlanishida senzitiv davrlar - bolalarning rivojlanishida alohida his etuvchi davrlarni aniqlagan. Bu rivojlanish davriga kattalar tashqaridan xech qanday taʼsir qila olmaydilar. Bolaga kerakli bilim, malakalarni qabul qilishdagi imkoniyatlar ayni senzitiv davrda beriladi.

Bola senzitiv davrdan keyin ham bu malaka, bilimni olishi mumkin, lekin unga mashaqqatli mehnat bilan erishadi, senzitiv davrda esa bu yengil va sezilmas bo'ladi. Senzitiv davrlar universal deb hisoblanadi, chunki millati, ijtimoiy kelib chiqishi va madaniyatidan qat'i nazar, hamma bolalarning rivojlanish davrida mavjud [7.85].

Pedagogik tamoyil - bolaning predmetli-rivojlantiruvchi muhitda didaktik material bilan mustaqil maqsadga yo'naltirilgan faoliyat.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim shaxsni ta'lim tizimiga moslashtirishni emas, aksincha, uning individual xususiyatlarini inobatga olgan holda har tomonlama rivojlanishi, shaxs sifatida kamolotga yetishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishni nazarda tutadi. Bu turagi ta'lim maktabgacha yoshdagi bolalarning o'z-o'zini rivojlantirishga, mustaqil bilim olishga, o'zining ichki imkoniyatlari, qobiliyatlarini to'la namoyon eta olishi, bilish faolligini oshirish uchun zarur sharoitni vujudga keltirishi zarur.

Bugungi maktab bolasidan aniq bilimlarga emas, fikrlash ko'nikmasi, kattalar va tengdosh o'rtoqlarini tushunish, ular bilan hamkorlik qilish ham talab etiladi. Shuning uchun bola maktabga qadam qo'yayotganida qanchalik bilimga ega ekanligi emas, balki uning yangi bilimlarni egallashga tayyorligi, atrof-olamga moslashishi ko'nikmasi, voqea-hodisani mustaqil ravishda tahlil etishi va mustaqil harakat qilishi muhimroq hisoblanadi [7, B.110].

Bolani biror narsaga o'rgatishgina emas, unda o'z kuchiga ishonchni orttirish, o'z g'oyasini himoya qilish, mustaqil ravishda bir qarorga kelish hamda unda "Men" kontsepsiyasini shakllantirish ham muhimdir. Maktabgacha yoshdagi bolaning maktab ta'limiga o'tishi hamisha uning hayoti, axloqi, qiziqish va munosabatlarida jiddiy tub o'zgarishlarni yuzaga chiqaradi. Shuning uchun maktabgacha yoshdagi bolani maktabgacha ta'lim tashkilotida yoki uydayoq maktab ta'limiga tayyorlash, bolaning yosh xususiyatiga doir bilim, ko'nikma va malakalar bilan tanishtirish kerak bo'ladi. Bunday tanishtiruv moslashuv davrining jiddiy qiyinchiliklaridan xalos bo'lishga yordam beradi [8].

Bolaning maktabga tayyorgarligi undagi idrok, kuzatish, xotira, tafakkurning rivojlanishi, vaqt va fazoviy tushunchalar olami, ijtimoiy hodisalar haqidagi tasavvurlarning shakllanishi bilan belgilanadi. Bolaning tayyorgarlik darajasini ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yilgan davlat talablari asosida aniqlash va tayyorlab borish zarur. Jarayon bola rivojlanishini sohalarga ajratish orqali amalga oshiriladi.

Davlat talablarida har bir sohalar, kichik sohalarga bo'lingan va shu bilan birgalikda, ular bolaning me'yorda rivojlanish ko'rsatkichlarini aks ettiradi.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyasi bola shaxsini butun bir ta'lim tizimining markaziga qo'yadi va unga tabiatan berilgan o'z qobiliyatini ro'yobga chiqarishi uchun har tomonlama qulay, xavfsiz, erkin shart-sharoit yaratadi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida shaxsga yo'naltirilgan ta'limning mazmuni va uning o'ziga xos xususiyatlari ochib berilgan. Ijodiy-rivojlantiruvchi muhitni to'g'ri tashkil etish bola shaxsining har tomonlama yetuk bo'lishi, mustaqil, maqsadga intiluvchan, ishni to'g'ri rejalashtira olish qobiliyatini takomillashtiradi. Bunday vaziyat bolani to'g'ri anglab harakat qilishga o'rgatadi. Tarbiyachilar bolalarning boshqalarnikiga o'xshamaydigan xislatlarini qadrlashlari, o'ziga xos xususiyatlarini hurmat qilishlari lozim. Bolani majburlash emas, erkin faoliyat yuritishi uchun imkoniyat yaratish kerak, asosiysi hamma narsa bola uchun qiziqarli bo'lishi lozim.

ИҚТИБОСЛАР. СНОСКИ. REFERENCES

1. Собир Турсуннов, Мактабгача таълим - узлуксиз таълим тизимининг пойдевори. Адолат газетси. 2020 й. 18 сони
2. Реуцкая Н.А., Багданюк Л.П.. Детский сад на рубеже веков. – М., 2001, 60-бет.
3. Монтессори М. Дети - другие. Уникальная методика раннего развития. - М: «АСТ», 2014 г. -С. 320.
4. Монтессори М. Научная педагогика. В 2-х томах. - М.: «Образовательные проекты», «Речь», «Сфера», 2014. -С. 528.
5. Монтессори М. Мой метод. Руководство по воспитанию детей от 3 до 6 лет. - М: «Центрполиграф», 2014. -С. 416.
6. CRITERIA FOR NON-EDUCATIONAL INSTITUTIONS TO IMPROVE THE QUALITY OF EDUCATION ME Khalloкова World Bulletin of Social Sciences (WBSS) Available Online at: <https://www ...>
 Нодавлат таълим муассасаларида таълим тизимини модернизациялаш М Халлокова Общество и инновации 3 (1), 151
7. F.A.Boltayeva. The Essence of Integrating Innovative Technologies in Preschool Education. Pindus Journal Of Culture, Literature and ELT. 110
<https://literature.academicjournal.io/index.php/literature/article/view/256>
8. МАКТАБГАЧА ТА’ЛИМИ ТАКОМИЛЛАСHTIRISHDA ILG ‘OR AXBOROT KOMMUNIKATSION TEXNOLOGIYALAR M Olamova, DA qizi Ma’murova, INTERNATIONAL CONFERENCES, 2022
https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=zK2c628AAAAJ&authuser=1&citation_for_view=zK2c628AAAAJ:Y0pCki6q_DkC

ISSN: 2181-4066
DOI Journal 10.56017/2181-4066

ПЕДАГОГИК ВА ПСИХОЛОГИК ТАДҚИҚОТЛАР

II-ЖИЛД, 3-4 СОН

ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ И ПЕДАГОГИЧЕСКИХ
ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ-II, НОМЕР-3-4

PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL STUDIES

VOLUME-II, ISSUE-3-4

«Педагогик ва психологик тадқиқотлар» электрон журнали 2022 йил 22 декабрь куни № 054834-сонли гувоҳнома билан оммавий ахборот воситаси сифатида давлат рўйхатидан ўтказилган.

Муассис: «IMFAKTOR Pages» масъулияти чекланган жамияти.

Таҳририят манзили: 100152, Тошкент шаҳри, Учтепа тумани, “Ватан” МФЙ, Чилонзор 24-мавзеси, 2-уй.

Телефон номер: +99894-410 11 55

Эл. почта: tahririyat@imfaktor.uz

Веб-сайт: www.imfaktor.uz